

Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining turizm industriyası (Singapur va Indoneziya misolida)

Navro'z Ilxomboy o'g'li Yuldashev
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining turizm tarmoqlari, rivojlangan turizm turlari va sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan joylar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, Indoneziya va Singapur respublikalarining turistik resurslari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Turizm, ekoturizm, ekstremal turizm, rekreatsion turizm, gastronomik turizm, ekotizim, janubi-sharqiy Osiyo (keyingi o'rinnarda JSh Osiyo deb yuritiladi)

The tourism industry of Southeast Asian countries (in the case of Singapore and Indonesia)

Navroz Ilkhomboy oglu Yuldashev
Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: This article describes the tourism industry of the countries of Southeast Asia, developed types of tourism and places that tourists often visit. and information is provided on the tourism resources of the Republics of Indonesia and Singapore.

Keywords: tourism, ecotourism, extreme tourism, recreational tourism, gastronomic tourism, ecosystem, Southeast Asia (then SE Asia)

Kirish

Hozirgi kunda turizm dunyoning ko'plab mamlakatlarida ommalashib ulgurgan. Buning asosiy sabablari: Tugagan ish vaqtidan keyingi dam olishga bo'lgan talabning ortishi, yangi joylarga borib ko'rish va u yerda yashovchi mahalliy aholining turmush tarzini o'rGANISHGA bo'lgan qiziqishlarning ortishi hisoblanadi.

Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlariga quyidagi 10 ta davlat kiradi: Bruney, Kambodja, Indoneziya, Laos, Malayziya, Myanna, Filippin, Singapur, Tailand va Vyetnam. Bu davlatlarning asosiy turistik bozori AQSh, Kanada, Yevropa va Afrika mamlakatlari hisoblanadi. Osiyo mamlakatlarida sarguzasht turizmidan tortib to sport turizmigacha turizmnинг barcha turlari rivojlangan. Buning asosiy sabablari iqlim sharoitining kengligi va turistik resurslarning ko'pligi hisoblanadi. Masalan, Bruney davlatida ekoturizm va ziyorat turizm turlari boshqa turizm turlariga nisbatan ancha

rivojlangan. Bu mamlakatda ekoturizm Tamburang milliy bog'ida tropik o'rmon bilan ifodalanadi. Bruney iqtisodiy rejalarashtirish va rivojlanish deportamenti ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 35 mingdan ortiq sayyoh mamlakatga tashrif buyurgan. Kambodja: Bu mamlakat o'zining boy tarixi, madaniyati, tiniq suvli plyajlari va eng asosiysi mazali taomlari bilan sayyoohlars tashrif buyurishi kerak bo'lgan eng ajoyib maskanlardan biriga aylantiradi. Bu yerda qishloq turizmi, ekstremal turizm, ekoturizm va rekreatsion turizm turlari boshqa turizm turlariga nisbatan ancha rivojlangan. Angkor Vat - bu dunyodagi eng katta tosh ibodatxonalar majmuasi bo'lib, 152,6 hektar maydonni o'z ichiga olgan mamlakatdagi eng diqqatga sazovor joylardan biri hisoblanadi. Mamlakatga 2022-yilda 2 million dan ortiq sayyoh tashrif buyurgan. Laos: Bu mamlakat sayyoohlarga eng avvalo o'zlarini xavfsiz his qilish, chiroli tog' manzaralaridan bahramand bo'lish va tarixiy - madaniy joylarga sayohat qilish kabi haqiqiy ekzotik sayohatlarni taklif qiladi. Mamlakatda tog' turizmi va qishloq turizmi nisbatan yaxshi rivojlangan. Luang Prabang - bu atrofi tog'lar bilan o'ralgan, tabiy go'zallikka ega Mekong va Nam Xon daryolarining to'g'ridan-to'g'ri tutashgan va sayyoohlars eng ko'p tashrif buyuradigan joy. 2023-yil yanvar oyidan iyun oyigacha bu mamlakatga 1 million 674 mingdan ortiq sayyoh tashrif buyurgan. Myanna: Mamlakatda ekoturizm va diniy turizm turlari ancha rivojlangan. Mamlakatdagi ko'llar, daryolar, chiroli o'rmonlar, bir tatib ko'rganda ta'mi og'izda qoladigan mazali ovqatlar sayyoohlarning aynan shu mamlakatga sayohat qilishlari uchun yetarli sabab hisoblanadi. Bagan - 2 000 dan ortiq qadimiy ibodatxonalar va manastirlar bilan bezatilgan keng tekislik. Bu yer mamlakatdagi eng ko'p sayyoohlars tashrif buyuradigan joy hisoblanadi. Mamlakatga 2023-yil iyul oyigacha 75 ming dan ortiq sayyoh tashrif buyurgan. Filippin: Bu mamlakatda ham boshqa JSH Osiyo mamlakatlari kabi ekstremal turizm, qishloq turizmi, ekoturizm, ta'lim turizmi kabi turizm turlari rivojlangan. Mamlakatga 2023-yil iyul oyigacha 3 miliyondan ortiq sayyoh tashrif buyurgani qayd etilgan. Malayziya: mamlakatda turizmning barcha turlari rivojlangan. Zamonaviy va rivojlangan shaharlar, bepoyon o'rmonlar, dengiz sohillari mamlakatga sayyoohlars oqimi ortishining asosiy sabablari hisoblanadi. Kuala-Lampur mamlakat poytaxti va sayyoohlars eng ko'p tashrif buyuradigna joy hisoblanadi. Malayziyaga 2022-yilda 10 miliondan ortiq sayyoh tashrif buyurgan. Tailand: Mamlakatda ajoyib plyajlar, qishloq joylari, buddaviylik dinining qadimiy ibodatxonalar, Tailand oshxonalar, mehribon mahalliy aholi, rangbarang chiroqlar bilan bezatilgan Tailand ko'chalar mamlakatga ko'p sonli sayyoohlarning kirib kelishiga asosiy sababdir. 2022-yilda mamlakatga 11 milion sayyoh tashrif buyurgan. Vyetnam: Mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyoohlarning asosiy qismi tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lishni xohlovchilardir. Mamlakatga 2022-yilda taxminan 3 milliondan ortiq sayyoohlars tashrif buyurgan.

Indoneziya: Asosiy qismi katta-kichik orollardan tashkil topgan bu mamlakat eng ko'p musulmonlar yashaydigan mamlakat hisoblanadi. Mamlakat 17,5 ming oroldan tashkil topgan va poytaxti Jakarta shahri hisoblanadi. Indoneziyada turizm iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu mamlakat turizm sanoati bo'yicha dunyoda 20 - o'rinni egallaydi. Mamlakat dunyo bo'yicha turizm eng tez rivojlanayotgan davlatlar reytingida 9 - o'rinni, Osiyo mamlakatlari ichida 3 - o'rinni va JSH Osiyo mamlakatlari ichida yetakchi o'rirlarni egallab kelmoqda. Mamlakatda tabiat turizmi rivojlangan bo'lib, buning asosiy sababi yaxshi saqlangan ekotizim, mamlakat hududining 57 % ini tropik o'rmonlar tashkil qilishi hisoblanadi. Mamlakatda ekotizimning yaxshi saqlanishi 17,5 ming ta oroldan 6 mingtasida insonlar istiqomat qilishi bilan bog'liq. Milliy bog'lari: 1817 - yilda tashkil etilgan Bagar batanika bog'lari va 1862 - yilda tashkil etilgan Cibodas batanika bog'lari Osiyodagi eng qadimgi batanika bog'lari hisoblanadi. Tropik o'simliklarning boy kolleksiyalari bu yerga botanika tadqiqotchilari va sayyohlarni jalb qiladi. Qo'shimcha ma'lumot sifatida mamlakatda 54 ta milliy bog'lar mavjud bo'lib, ulardan 6 tasi jahon madaniy me'rosi ro'yxatiga kiritilgan. Xavflilik darajasi yuqori bo'lsada tog'larda piyoda sayr qilish va dam olishni maqsad qilib keluvchi sayyohlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Sharqiy Yava provinsiyasida joylashgan va hududda faol vulqonlar bo'lgan Broma tog'i (2329 metrr balandligi) sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan joylardan biri hisoblanadi. Madaniy turizm: Indoneziyaning ko'pchilik yirik shaharlarida Indoneziya madaniyati va sayyohlik joylarini tarixdan oldingi davrdan mustamlaka davrigacha bo'lgan davr haqida ma'lumot beradigan milliy muzeylar mavjud. Bunga misol sifatida Jakartada joylashgan Indoneziya milliy muzeyini keltirish mumkin. Muzeysda tarixiy, arxeologik, geografik eksponatlar va harbiy asarlar mavjud. Dunyodagi eng katta buddaviylik ibodatxonasi hisoblanmish Borobodur ham aynan shu mamlakat hududida joylashgan. Ibodatxonada 504 ta budda haykallari mavjud. Hordiq chiqarish va shahar turizmi: Mamlakatga tashrif buyurayotgan sayyohlar asosan xarid qilish, katta shaharlarning diqqatga sazovor joylarini borib ko'rish, zamonaviy istirohat bog'lari va o'yin kulgularidan bahramand bo'lish maqsadida keladilar. Ma'lumki, Indoneziya to'qimachilik va moda mahsulotlarining sifati bilan dunyoga mashhurdir. Bandung - Indoneziyadagi moda mahsulotlarini sotib olish uchun sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan joylardan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, Indoneziyaga 2022-yilda Indoneziyaga 5,47 million sayyoh tashrif buyurgan va 4,26 miliard dollar foyda keltirgan.

Singapur: Yer maydoni kichik va aholi soni kam bo'lishiga bo'lishiga qaramasdan bu mamlakatda turizm mamlakat iqtisodiyotiga asosiy hissa qo'shuvchi sanoatlardan biri hisoblanadi. Eng past jinoyat ko'rsatkichiga egaligi mamlakatga sayyohlar oqimini yanada oshiradi. Mamlakatda tadbirlar turizmi, biznes turizmi, shahar turizmi, ta'lim turizmi, suv turizmi va ekoturizm turlari rivojlangan. Shu bilan birgalikda Singapur

hukumati mamlakatga kelayotgan sayyoohlardan atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni qat'iy da'vo qiladi. Ko'p qavatli savdo markazlari va zamonaviy mehmonxonalarini o'z ichiga oladigan Orchard Road tumanı Singapurning sayyoohlar eng ko'p tashrif buyuradigan turizm markazi hisoblanadi. Singapurdagi yana bir diqqatga sazovor joylardan biri Singapur hayvonot bog'i hisoblanadi. Bu hayvonot bog'inining boshqa hayvonot bog'laridan farqi shundaki, bu bog' ochiq hayvonot bog'i tushunchasini qabul qilgan. Unga ko'ra, hayvonlar qafas o'rniga yashirin quruq yoki ho'l xandaklar bilan tashrif buyuruvchilardan ajratilgan qo'ralarda saqlanadi. Singapurdagi yirik savdo markazlari Orchard Road tumanida joylashgan. Singapur sayyoohlik kengashi sayyoohlar uchun butun yil davomida turli tadbirlarni targ'ib qiladi. Bulardan eng mashhuri "Singapur taomlari festivali". Bu festival har yili iyul oyida Singapur oshxonasini nishonlash uchun o'tkaziladi. Singapurdagi eng katta sun'iy orol Sentosa oroli faqat o'yin kulgu va dam olish maqsadida yaratilgan. Bu orolda har qanday yosh qatlami zavqlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Merlion shahar markazida joylashgan bu monument sayyoohlar ko'p tashrif buyuradigan joylardan yana bittasidir. Bu yodgorlik buloq sherning boshi va baliq tanasi bilan tasvirlangan afsonaviy mavjudotdir. Aytishlaricha, Singapur so'zi "Arslon shahri" deb tarjima qilingan. Bu yerda Singapurning qisqa tarixi mujassam bo'lgan ya'ni kichik bir qishloqdan to zamonaviy shahargacha bo'lgan davr aks ettiriladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2022-yilda Singapurga 6,31 million sayyooh tashrif buyurgan. 2022 - yilda turizm sanoatidan kelgan foyda taxminan 14 milliard Singapur dollarini tashkil qilgan.

Xulosa

Berilgan ma'lumotlardan shu narsa aniq bo'ladiki, JSh Osiyo mamlakatlari xavfsizlik jihatidan ham turistik infrastruktura yetarlicha rivojlantirilganligi jihatidan ham sayohat qilish, dam olish va yangi narsalarni o'rganish uchun eng yaxshi hududlardan biri sifatida tan olinadi.

References

1. <https://opendevelopmentcambodia.net/topics/tourism/>
2. <https://www.statista.com/statistics/645730/tourist-arrivals-in-asean-region-by-country-of-arrival/>
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Indoneziyada_turizm
4. <https://www.ziyouz.com/kutubxona/category/139-geografiya?download=5682:turizm-geografiyasi-f-gulmetov-a-allabergenov>
5. <https://www.tourism.gov.my/>
6. https://en.wikipedia.org/wiki/voy:Southeast_Asia